

O‘SMIRLIK DAVRIDAGI BOLALARGA TA’LIM- TARBIYA BERISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Ko'bayeva Fazilat Yaxyayevna
Samarqand viloyati Payariq tumani
Maktabgacha va maktab ta'lim
bòlimiga qarashli 86-maktab psixologi
Isoqulova Charos Shokirboyevna
Samarqand viloyati Payariq tumani
Maktabgacha va maktab ta'lim
bòlimiga qarashli 5-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari, ushbu yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishda qo‘llaniladigan psixologik usullar hamda ularning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, o‘smirlarning emotsional rivojlanishi, mustaqillikka intilishi va ijtimoiy moslashuvi jarayonida pedagog va psixologning o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, psixologik usullar, tarbiya, ta’lim, motivatsiya, emotsional rivojlanish, mustaqillik, muloqot, o‘qituvchi, psixolog.

KIRISH

O‘smirlik davri inson rivojlanishining eng murakkab va o‘zgaruvchan bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda bola bolalikdan kattalikka o‘tish jarayonini boshdan kechiradi, uning psixik, emotsional va ijtimoiy xususiyatlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi. Shu sababli o‘smirlarga ta’lim-tarbiya berishda alohida psixologik yondashuv talab etiladi. O‘smirlar o‘zini anglash, mustaqil fikrlash va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilish kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bu davrda ular tanqidga sezgir, emotsional jihatdan beqaror va tengdoshlar fikriga juda bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli pedagoglar va psixologlar ularning psixologik holatini hisobga olgan holda yondashuvni to‘g‘ri tanlashlari lozim.

O‘smirlar bilan ishlashda qo‘llaniladigan eng samarali psixologik usullardan biri bu muloqotga asoslangan yondashuvdir. O‘qituvchi o‘smir bilan ochiq va hurmatga asoslangan muloqot o‘rnatishi kerak. Buyruq berish emas, balki tushuntirish va suhbat orqali ta’sir ko‘rsatish o‘smir shaxsining ijobiy shakllanishiga yordam beradi. Motivatsiyani oshirish ham muhim psixologik usullardan biridir. O‘smirlarni rag‘batlantirish, ularning yutuqlarini e’tirof etish va muvaffaqiyat hissini yaratish

ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Ichki motivatsiyani shakllantirish esa uzoq muddatli ijobiy natija beradi.

Guruhiy ishlash va hamkorlik usullari ham o‘smirlar uchun juda samarali hisoblanadi. Tengdoshlar bilan birgalikda ishlash jarayonida ular o‘z fikrini bildirish, boshqalarni tinglash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash ham o‘smirlik davrida muhim ahamiyatga ega. Maktab psixologi o‘smirlarning ichki muammolarini aniqlaydi, stress va emotsional zo‘riqishni kamaytirishga yordam beradi hamda ularni to‘g‘ri yo‘naltiradi. Shuningdek, o‘smirlarga nisbatan adolatli va teng munosabatda bo‘lish juda muhim. Kamsitish, keskin tanqid yoki befarqlik ularning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ijobiy psixologik muhit esa ularning ishonchini oshiradi.

O‘smirlarni tarbiyalashda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ham samarali hisoblanadi. Har bir o‘smirning qiziqishi, qobiliyati va psixologik xususiyatlarini hisobga olish ta‘lim jarayonining muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. O‘smirlik — balog‘atga yetish davri bo‘lib, bu davr yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli murakkab masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o‘smir rivojlanishida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Ushbu o‘zgarishlar fiziologik hamda psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘smirlik davri odatda ikki bosqichga — kichik o‘smirlik va katta o‘smirlik davrlariga ajratiladi.

Birinchi bosqichda o‘smir o‘zini “bola”lardan ajratib, kattalar olamiga mansubligini ta‘kidlamoqchi bo‘ladi. Bu davrda kattalar hayotiga kirishga intilish o‘smirlarning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ular kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilishga moyil bo‘ladilar, o‘z xulq-atvorlarini tanqidiy baholay olmaydilar, ko‘pincha tengdoshlari guruhiga kuchli bog‘lanib qoladilar.

Ikkinchi bosqichda esa o‘smir o‘zining bola emasligini anglay boshlaydi va o‘z shaxsini to‘liqroq idrok etadi. U o‘zligini ulug‘lashga, mustaqil harakat qilishga intiladi. Bu davrda o‘smirlar o‘z shaxsi haqidagi fikrlarga ko‘proq e‘tibor qaratadilar, o‘zlarini bilish, rivojlantirish va tarbiyalashga harakat qiladilar. Natijada ichki erkinlik, o‘z-o‘zini anglash va mustaqil xatti-harakatlar sezilarli darajada rivojlanadi.

Bu jarayonda irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funksiya sifatida o‘smirning erkin harakat qilish quroli bo‘lib xizmat qiladi. O‘smirning xatti-harakatlari endi faqat tengdoshlarga bog‘liq bo‘lmaydi, u o‘z fikrini himoya qila oladi, mustaqil qarorlar qabul qiladi. Bu davrda o‘z-o‘zini tahlil qilish, ichki dunyosiga qiziqish va o‘zini tarbiyalash elementlari paydo bo‘ladi.

O‘smirlik davriga so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, tajanglik, o‘z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi ayrim salbiy xususiyatlar ham xosdir. O‘smirlar

kattalarning mustaqilligi va erkinligiga havas qiladilar, ularga taqlid etadilar. Shu sababli ular katta bo‘lishga, mustaqil va erkin shaxs sifatida ko‘rinishga intiladilar.

O‘smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik otanalar, o‘qituvchilar va murabbiylar bilan ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. O‘smir mustaqillikka, erkinlikka, hurmatga intiladi, biroq kattalar tomonidan nazorat va cheklovlarga duch kelganda norozilik bildiradi. Bu davrda “xohlayman” va “kerak” o‘rtasidagi ichki qarama-qarshiliklar ko‘p uchraydi.

O‘smir o‘z qadr-qimmatini yuqori baholashga intiladi, o‘zini mustaqil shaxs sifatida tan oldirishga harakat qiladi. U kattalar bilan teng huquqli munosabatlarni xohlaydi. Shu bilan birga, o‘smirlik davrida taqlid qilish xususiyati ham kuchli bo‘lib, ular o‘zlariga yoqqan kattalar, qahramonlar yoki tengdoshlariga ergashadilar.

Bu davrda zararli odatlarga moyillik ham kuzatilishi mumkin. O‘smirlar yangi tajribalarni sinab ko‘rishga qiziqib, ba‘zan noto‘g‘ri yo‘llarga kirib qolishlari ehtimoldan xoli emas. Shu sababli ularni to‘g‘ri yo‘naltirish, foydali faoliyatlarga jalb etish muhim ahamiyatga ega. O‘smirlik davrida emotsional beqarorlik ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Kayfiyat tez-tez o‘zgaradi, hissiyotlar kuchli va qisqa muddatli bo‘ladi. Ular ba‘zan haddan tashqari g‘ayratli, ba‘zan esa tushkun holatga tushib qolishlari mumkin.

Do‘stlik bu davrda juda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘smirlar tengdoshlari bilan yaqin munosabatlarga ehtiyoj sezadilar, “biz” hissi shakllanadi. Do‘stlar ularning shaxsiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘smirlik davrining asosiy qarama-qarshiligi ortib borayotgan ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi nomutanosiblikdir. Bu holat ba‘zan xulq-atvor buzilishlariga ham olib kelishi mumkin.

O‘smirlik davri murakkab psixologik jarayonlar bilan kechadi. Bu davrda o‘smirlarni to‘g‘ri yo‘naltirish, ularning ijobiy sifatlarini rivojlantirish va mustaqil fikrlashga o‘rgatish muhimdir. O‘smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko‘rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklash, vasiylik qilish, yo‘naltirish, nazorat qilish yoki doimo quloq solishni talab qilish, jazolash, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashmaslik holatlari uni juda xafa qiladi va norozilikka sabab bo‘ladi. O‘smirda o‘z qadrini anglash hissi shakllanadi va u o‘zini kamsitishga, mustaqillik huquqidan mahrum etishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan shaxs sifatida ko‘ra boshlaydi.

Bolalik davrida kattalar bilan bo‘lgan munosabat haqidagi tasavvurlari o‘zgaradi va bu uning o‘z kattaligi haqidagi tasavvurlari bilan mos kelmay qoladi. U kattalarning huquqlarini cheklashga, o‘z huquqlarini esa kengaytirishga intiladi. O‘smir kattalarning uning shaxsi va insoniy qadr-qimmatini hurmat qilishlarini xohlaydi, ishonch va mustaqillik berilishini talab qiladi, ya’ni kattalar bilan ma’lum darajada teng huquqlilikka erishishga harakat qiladi.

O‘smirlik davriga xos xususiyatlardan biri — kimningdir xatti-harakatlarini taqlid qilishdir. Ko‘pincha ular o‘zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga ergashadilar. O‘smirlar bu davrda chekish va spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin.

O‘quvchilarni o‘z xatti-harakatlarining oqibatlarini oldindan ko‘ra bilishga va o‘zini tuta bilishga o‘rgatish tarbiyachilarning asosiy vazifasidir. O‘smirlar haddan tashqari faol va tinib-tinchimas bo‘ladilar, ular uchun bekorchilik og‘ir kechadi. Bir xil turdagi ishlardan tez charchaydilar va bir xildagi faoliyatga qiziqmay qo‘yadilar, bu esa ularning ta‘lim jarayonining muvaffaqiyatiga salbiy ta‘sir qiladi. Shu bois o‘smirlarga samarali ta‘lim va tarbiya berishda ularni turli faoliyatlarga jalb qilish, qiziqtirish hamda kuchiga mos, ammo biroz murakkabroq topshiriqlarni bajarishga yo‘naltirish muhimdir. “O‘smirlik yoshining mohiyati shundan iboratki, o‘smir nisbatan faol ijtimoiy muhitga kirib boradi va bolalik davrida shakllangan eski munosabatlarni qayta ko‘rib chiqib, ular uchun kurasha boshlaydi”. Har bir o‘smir muvaffaqiyatli faoliyat orqali atrofdagilar orasida o‘z shaxsini tasdiqlashga intiladi.

Kattalar o‘smirlarning foydali jamoat ishlarida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam berishlari va shu orqali ularning o‘z qadr-qimmatini anglashiga imkon yaratishlari lozim. Aks holda, ular o‘zini boshqalardan ustun qo‘yishi, bepisandlik qilishi mumkin. Bu esa o‘z qadr-qimmatini tan olinmaganiga nisbatan norozilik sifatida salbiy xatti-harakatlar orqali namoyon bo‘lishi ehtimolini oshiradi.

O‘smirlar nihoyatda taqlidchan bo‘lib, ularda hali aniq shakllangan dunyoqarash to‘liq rivojlanmagan bo‘ladi. Ular tashqi ta‘sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo‘ladilar. Shuningdek, ularga mardlik, jasurlik va tantilik kabi xususiyatlar ham xosdir. Tashqi ta‘sirlarga beriluvchanlik o‘smirda shaxsiy fikr shakllanishiga olib keladi, biroq bu fikrlar ko‘pincha yetarli asoslanmagan bo‘ladi. Shuning uchun ham ular kattalar, ota-onalar va ustozlarning to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishiga qaramay, o‘z fikrlarini o‘tkazishga harakat qiladilar. O‘smirlarda farosatlilik, tejamkorlik, ehtiyotkorlik va uzoqni ko‘ra bilish kabi sifatlar hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi.

Tengdoshlar guruhida o‘smir o‘zining kelishuvchanligi bilan ajralib turadi. U o‘z guruhiga bog‘liq bo‘lib, uning umumiy fikriga qo‘shilish va qarorlarini bajarishga tayyor bo‘ladi. Guruh esa unda “biz” hissining shakllanishiga yordam beradi va ichki psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi. O‘smirlik davrida do‘stlik juda muhim ahamiyatga ega. O‘smirlar ruhan va qalban yaqinlikka ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyoj ularning salomlashish, birga o‘tirish, birga yurish kabi xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Bunday yaqin munosabatlar o‘smir shaxsining shakllanishida muhim iz qoldiradi.

O‘smir yoshlarning xulq-atvori va faoliyatida ba‘zan o‘z kuchlari yetmaydigan qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Asosiy qarama-qarshilik — ortib borayotgan

jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi o'rtasidagi ziddiyatdir. O'smirning o'z kuchiga to'liq ishonmasligi uni o'zini kattalardek ko'rsatishga majbur qiladi va shu bilan birga o'z imkoniyatlarini yetarli baholay olmaslik holatini ham keltirib chiqaradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'smirlik davrida ta'lim-tarbiya berish murakkab psixologik jarayon bo'lib, u individual yondashuv, to'g'ri muloqot, motivatsiya va psixologik qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Ushbu usullar o'smirlarning barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
3. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. — T.: Sharq. 2000.
5. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.
6. Халперн Д. Психология критического мышления. Питер. 2000.
7. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
8. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
9. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
10. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 732-737.
11. Sulaymonov, J. B. (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 9-14.